



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Шавкат Собирович Олтаев Ўзини-ўзи банд қилишда заиф бандликдан унумли бандликка ўтишнинг инновацион йўллари	84
Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова Камбағалликни қисқартиришда ижтимоий хизматларнинг ўрни	88
Farruh Shadiyrovich Shanazarov Essence and content of the concept of poverty	92
Sunnatillo Bakhriddin o‘g‘li Iskandarov Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va funksiyalari	95
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Анвар Нематович Холикулов Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини аниқлаш йўллари	99
Komoliddin Jurabayevich Matkarimov, Adxamjan Akbarovich Urinov Transport xizmatlari eksportini modellashtirish va bashoratlash masalalari	103
Shohsanam Nuritdinovna Niyozova Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llari	107
Dilshod Sultanovich Musinov Xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish yo‘llari	112
Aziza Tolibovna Raxmonova Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligi	117
Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari	123
Нигина Бахтиёрвна Рузиева Изучение инновационного развития сферы услуг в зарубежных странах	127
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili	130
Malika Axmad qizi Qurbonova Turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri	135
Abduvoxid Quldoshevich To‘rayev Turizmda hududlar salohiyatidan oqilona foydalanishning nazariy asoslari va tamoyillari	140
Ойдин Давроновна Хамракулова Зеленая экономика и экологический туризм в экономике Узбекистана	143
Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов Туризм хизматлари бозорининг ишлаш механизмини оптималлаштириш жараёни	147
Матлубахон Абдиманабовна Куймуратова Туризм соҳасини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларининг назарий масалалари	152

Komoliddin Jurabayevich Matkarimov – Namangan muhandislik-texnologiya instituti professori, i.f.n.,

Adxamjan Akbarovich Urinov – Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, f-m.f.n.,

TRANSPORT XIZMATLARI EKSPORTINI MODELLASHTIRISH VA BASHORATLASH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada transport xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotida o‘rini, O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida, xususan eksportda transport xizmatlarining ulushi tahlil etilgan, transport xizmati eksportini matematik modellashtirish va bashoratlash masalasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganilgan, transport xizmati eksportini 2024-2028-yillarda holati bashorat qilingan, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: transport xizmatlari, yalpi ichki mahsulot, logistika xizmatlari, eksport, tovarlar, xizmatlar, matematik modellashtirish, bashoratlash, dinamik qatorlar, ekstrapolyatsiya usuli, ekonometrik model.

Kirish. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi hamda xalqaro integratsiyaning kengayib borayotganligi sharoitida dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati cheklangan mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirishda transport logistikasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu bois mamlakatimizning hozirgi logistik imkoniyat va kamchiliklarini chuqur tahlil qilgan holda soha istiqboli yo‘lida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish asosiy vazifalardan biridir [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev bu masalaga e‘tibor qaratib “Bugun Markaziy Osiyo davlatlari oldida muhim strategik vazifa turibdi. U ham bo‘lsa, mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo‘laklariga chuqur integratsiyasini ta‘minlashdir” – deb ta‘kidlab o‘tgan edi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani yozishda A. A. Koroleva, A. A. Dutina [4, 6], S. B. Maxmudov [5], V. S. Lukinskiy [7], A. M. Gadjinskiy [8], L.B. Mirotin [9] va boshqa tadqiqotchilarning transport xizmatini matematik modellashtirish va bashoratlash masalasidagi ilmiy ishlari metodlogik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada iqtisodiy voqelik jarayonlarini o‘rganishning ilmiy usullari – statistik tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, matematik modellashtirish va istiqbolli bashoratlash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Transport xizmatlari har bir mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Tranzit mamlakatlarda ichki logistika va transport xizmatlarining eksporti hajmi mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM)ning salmoqli qismini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarning YAIMidagi logistika xizmatlari ulushi 10-15% ni, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSHda logistika xarajatlari YAIMning 8 dan 25% gachani (AQSH - 25%, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari -8-12%) tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich Litvada – 14%, Polshada – 15%, Germaniyada – 17%, Xitoyda – 18%, Rossiyada – 16%.

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda 108477,7 mlrd. so‘mlik transport xizmatlari ko‘rsatildi. Transport xizmatlari umumiy xizmatlarning 23,1 % ini, YAIM ning esa 10,2 % ini tashkil etdi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirishni ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi 2023-yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasini 62,5 mlrd. AQSH dollaridan ortdi (1-jadval).

Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 24426,2 mln. AQSH dollariga yetdi va so‘nggi yillarda (2015-2023-yillar) qariyb 2 barobarga ortdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 5179,7 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 21,2 % ini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 16,2 % ga ko‘paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy

1-jadval

**Transport xizmatlari eksportining o‘zgarish dinamikasi
(mln. AQSH dollari hisobida)**

Yillar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport hajmi			
		Jami	Tovarlar	Xizmatlar	
				Jami	Transport
2011	26365,9	15021,3	9070,4	1772,5	1502,1
2012	26416,1	13599,6	9541,5	2356,4	1373,6
2013	28269,6	14322,7	8458,4	2942,8	1446,6
2014	27530,0	13545,7	8001,8	3030,2	1300,4
2015	24924,2	12507,6	6334,2	3061,3	1381,2
2016	24309,4	12178,7	4816,0	3204,7	1445,3
2017	26962,1	13953,8	5487,0	3505,7	1604,7
2018	33809,1	14253,9	8314,5	3029,9	1678,6
2019	41751,0	17458,7	9105,6	3434,8	1765,9
2020	41751,0	17458,7	9105,6	3434,8	1765,9
2021	42170,5	16662,8	9971,3	2581,7	1744,1
2022	50500,3	19732,6	11165,6	4456,7	1753,5
2023	62567,4	24426,2	11092,7	5179,7	2237,6

ulushi transport (43,2 %), safarlar (turizm) (41,4 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (8,5 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (3,1 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Transport xizmatlari eksporti hajmi yildan yilga ortib bormoqda va 2023-yilda 2237,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, umumiy eksportning 9,2 % ini tashkil etdi (2-jadval).

Transport xizmatlari eksporti hajmi yildan yilga ortib borayotgan bir paytda xizmatlar eksportidagi ulushining avvalgi yillarga nisbatan kamayib borayotganligi so‘nggi yillarda safarlar (turizm) xizmatlarining o‘shish sur‘atlari yuqoriligi bilan izohlanadi.

2-jadval

Eksportda transport xizmatlarining ulushi (mln. AQSH dollari)

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Transport xizmatlari eksporti, mln. AQSH dollari	1678,6	1765,9	1426,1	1744,1	1753,5	2237,6
Xizmatlar eksportidagi ulushi, %	55,4	49,6	71,1	67,6	39,3	43,2
Umumiy eksportdagi ulushi, %	11,8	9,9	9,4	10,5	8,9	9,2
Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ulushi, %	4,9	4,2	3,9	4,1	3,5	3,6

Respublikamizning tashqi iqtisodiy faoliyati ortib borayotgan bir sharoitda eksport va import tarkibining asosiy qismi bo‘lgan tovarlar va mashinalar hamda transport asbob-uskunalarini tashib keltirish va yetkazib berishda O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bu masalalarni ta‘minlash maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bir qator vazifalar belgilab berilgan [3]:

- respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish;
- yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish;
- 56 ming kilometr yo‘llarni qurish va ta‘mirlash;
- Toshkent – Samarqand va Toshkent – Farg‘ona vodiysi yo‘nalishlarida davlat-xususiy sheriklik asosida avtomobil yo‘llarini qurish;
- mintaqada turli ustuvor yo‘nalishlar, ayniqsa, transport-kommunikatsiya infratuzil-

malarini yanada rivojlantirish borasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish;

- Janubiy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, Afrika mintaqasidagi mamlakatlar bilan mavjud aloqalarni yanada kengaytirish, yangi va istiqbolli yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, keng mintaqalarni bog'lovchi va O'zbekistonni jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo'laklarini shakllantirish va boshqalar.

Transport xizmati eksportini matematik modellashtirish va bashoratlash masalasida bir qator olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan va ma'lum natijalarga erishgan. Xususan, A. A. Koroleva, A. A. Dutinalar avtomobil transportida eksport yuklari tashish hajmini aniqlashda kvartal ma'lumotlaridan foydalanishga asoslangan quyidagi modelni taklif etishgan [4]:

$$Auto(t) = 218,749 - 652,802e^{-t} + 113,143t - 4,00847t^2 + 0,0517349t^3 - 343,401\ln t$$

bu yerda t – davrning tartib raqami.

Tadqiqotchi S.B.Maxmudov eksport amaliyotlarini ardl va arima modellari asosida ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirishni taklif etgan [5].

Shuningdek, A. A. Koroleva, A. A. Dutinalar dastlabki dinamik qatorlarni yetarli darajada tavsiflovchi taxminiy funksiyani qurish va trend tahlilini, shu jumladan trend chizig'ini tanlashni amalga oshirishga asoslangan trend ekstrapolyatsiya usuli yordamida bashorat qilish uslubini taklif etishgan va Belarus Respublikasining 2030-yilgancha bo'lgan davr uchun transport xizmati hajmini bashorat qilishgan [6].

Transport xizmatini matematik modellashtirish va bashoratlash masalasida boshqa bir qator tadqiqotchilar ham izlanishlar olib borishgan. Jumladan, V. S. Lukinskiy va boshqalar [7], A. M. Gadjinskiy [8], L.B. Mirotina va boshqalar [9].

Eksport salohiyati qiymatiga omillarning ta'sir darajasini baholash uchun quyidagi sabablarga ko'ra chiziqli regressiya modelidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchidan, chiziqli modellar talqin nuqtayi nazaridan eng yaxshi o'rganilgan va tushunarli. Ikkinchidan, tasodifiy o'zgaruvchilar o'zaro normal taqsimotga ega deb taxmin qilinadi. Normal taqsimot qonunga asoslanib, normal taqsimlangan tasodifiy o'zgaruvchilarning regressiya chiziqdari to'g'ri chiziqlardir (normal regressiyalar har doim chiziqli). Uchinchidan, chiziqli regressiya modeli asosidagi bashoratlash xatosi xavfi, boshqa modellarga nisbatan, masalan, kvadratik model bilan taqqoslaganda sezilarli darajada kamdir. To'rtinchidan, tanlab olingan omillarning eksport hajmi va boshqa omillar bilan o'zaro bog'lanish zichligi yuqori bo'lganligi sababli, korrelatsiya koeffitsiyenti yuqori (zich) va juda ham yuqori (zich) bog'lanishda bo'lganligi sababli.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib korxonaning eksport hajmini aniqlash va bashoratlashda quyidagi ekonometrik modeldan foydalanishni taklif etamiz:

$$Y = a_0 + f(x_1, \dots, x_n)$$

bu yerda Y - transport xizmatlari eksporti hajmi; a_0 - ozod had (tasodifiy komponent);

$f(x_1, \dots, x_n)$ - transport xizmatlari eksporti hajmiga ta'sir etuvchi omillarning qiymati.

O'zbekistonda transport xizmatlari eksporti hajmini bashorat qilishdan avval har bir omilning vaqtga bog'liq holdagi qiymatlarini aniqlash tenglamalarini hamda korrelatsiya va determinatsiya koeffitsiyentlarini aniqlaymiz.

Korrelatsion-regression tahlil xususiyatlaridan hamda MakroI paket dasturidan foydalan-gan holda transport xizmatlari eksporti hajmi va eksport hajmiga ta'sir etuvchi tanlab olingan omillarni kelgusida qay darajada bo'lishini bashoratlash uchun quyidagi chiziqli modelni olamiz:

$$Y(t) = 48561,9071 + 0,0467 \cdot x_1(t) - 0,1016 \cdot x_2(t) - 0,1369 \cdot x_3(t) - 23,4432 \cdot t$$

Ko'rilayotgan bog'lanish uchun korrelatsiya koeffitsiyenti $R=0,9703$ ga, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,9414$.

Transport xizmatlari eksporti hajmiga ta'sir etuvchi omillarning vaqtga bog'liq qiymatlari asosida kelgusi yillar uchun transport xizmatlari eksporti hajmini bashorat qilindi (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasida transport xizmatlari eksporti va unga ta’sir etuvchi omillarning 2024-2028 yillar uchun bashoratlash natijalari (mln. AQSH dollari)

Yillar, t	Tashqi savdo aylanmasi, $x_1(t)$	Tovarlarni, $x_3(t)$	Xizmatlar, $x_4(t)$	Transport xizmatlari eksporti, $y(t)$
2024	69930,06	12279,00	6456,60	2249,36
2025	80650,91	12751,20	8328,82	2422,63
2026	92877,06	12976,67	10753,56	2615,66
2027	106698,63	12896,02	13799,62	2829,30
2028	122206,11	12449,57	17536,12	3064,36

Yuqoridagi tahlillar va bashoratlash natijalari shuni ko‘rsatadiki amaldagi rivojlanish tendensiyasi saqlangan holda 2024-2028-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 195,3 % ga, tovarlar eksporti 112,2 % ga, xizmatlar eksporti 338,6 % ga va transport xizmatlari eksporti esa 136,9 % ga ortishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki respublikamiz tashqi savdo aylanmasida tovarlar eksportining ulushi so‘nggi yillarda (2011-2023 yillar) 34,4 % dan 17,7 % ga qadar kamaygan, xizmatlar ulushi esa 6,7 % dan 8,3 % qadar ortgan. 2024-2028 yillarda bu tendensiya davom etib tovarlar ulushi 10,2 % ga qadar kamayishi, xizmatlar ulushi esa 14,3 % ga qadar ortishi bashorat qilindi. Tashqi savdo aylanmasida transport xizmatlari eksporti ulushi ham sezilarli darajada kamayishi kutilmoqda, 2023-yildagi 3,6 % ulushi, 2028-yilda 2,5 % atrofida bo‘lishi kutilmoqda. Shuningdek, transport xizmatlari eksportining umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi ham sezilarli darajada kamayishi bashorat qilinmoqda. Bu ko‘rsatkich 2011-yilda 84,7 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda 43,2 % ni tashkil etgan, 2028-yilda esa 17,5 % bo‘lishi kutilmoqda. Bu holat birinchidan, tashqi savdo aylanmasida tovarlar ulushining kamayishi bilan, ikkinchidan, xizmatlar tarkibidagi boshqa turdagi xizmatlarning o‘sish sur‘ati transport xizmatlari eksporti sur‘atidan yuqoriligi bilan izohladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilab berilgan vazifalar transport xizmatiga qo‘yilgan talablar ijrosini ta’minlash uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- transport korxonalarini zamonaviy, yuk ko‘taruvchanligi yuqori bo‘lgan, yonilg‘i sarfi jihatidan tejamkor bo‘lgan harakatlanuvchi tarkiblar bilan ta’minlash;
- yuk tashish tannarxini pasaytirish choralarini ko‘rish;
- transport vositalarini bojxonalarda turib qolish vaqtini qisqartirish choralarini ko‘rish;
- transport vositalarining harakatlanish marshrutlarini tanlashda yo‘l sharoitiga alohida e’tibor qaratish (tik balandliklar va tik qiyaliklari bo‘lgan yo‘llarni chekta o‘tish), harakatni cheklanishi va tig‘izlik sababli turib qolish vaqtini ortib ketishiga, transport vositalarining o‘rtacha ekspluatatsion tezligini pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- yangi, transport vositalarining ish samaradorlik yuqori bo‘lgan transport yo‘laklarini ochish choralarini ko‘rish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Карриева Я. Ўзбекистонда логистика. Унинг ривожланиш истикболлари қандай? Халқ сўзи газетаси. 2021 йил 25 март, №60 (7840)-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев бу масалага эътибор қаратиб БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. xabar.uz/jamiyat/sessiyadagi-nutq.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони. ҚММВ: 06/23/158/0694-сон 12.09.2023-у.
4. Королева А. А. Международная транспортная логистика: конкурентные позиции Беларуси: моногр. / А. А. Королева, А. А. Дутина. — Минск : Изд. Центр БГУ, 2020. — 143 с.

5. Махмудов С.Б. Логистика тизимини молиялаштириш орқали экспорт амалиётларини ardl ва arima моделлари асосида эконометрик моделлаштириш ва прогнозлаштириш. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2/2023, Mart-aprel (№ 00064). 243-261 – бетлар.

6. Королева А. А., Дутина А. А. Моделирование и прогнозирование экспорта транспортных услуг. Банкаўскі веснік, снежань 2016. Стр. 56-61

7. Модели и методы теории логистики: Учебное пособие. 2-е изд. / Под ред. В. С. Лукинського. — СПб.: Питер, 2008. — 448 с.

8. Гаджинский А. М. Логистика: Учебник. — 15-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. — 472 с.

9. Транспортная логистика. / Под общей редакцией. Л.Б. Миротина. — М.: Издательство “Экзамен”, 2003. — 512 с.

<p>К.Маткаримов, А.Уринов Вопросы моделирования и прогнозирования экспорта транспортных услуг</p>	<p>К.Matkarimov, A.Urinov Issues of modeling and forecasting the export of transport services</p>
<p>Аннотация. В данной статье проанализировано место транспортных услуг в экономике страны, их доля во внешнеторговом обороте Узбекистана, в частности в экспорте, изучены научные исследования по математическому моделированию и прогнозированию экспорта транспортных услуг, спрогнозировано состояние экспорта транспортных услуг на 2024-2028 годы, даны соответствующие предложения и рекомендации.</p> <p>Ключевые слова: транспортные услуги, ВВП, логистические услуги, экспорт, товары, услуги, математическое моделирование, прогнозирование, динамические ряды, метод экстраполяции, эконометрическая модель.</p>	<p>Abstract. This article analyzes the place of transport services in the country's economy, their share in Uzbekistan's foreign trade turnover, in particular in exports, studies scientific research on mathematical modeling and forecasting of transport services exports, predicts the state of transport services exports for 2024-2028, and provides relevant proposals and recommendations.</p> <p>Keywords: transport services, GDP, logistics services, exports, goods, services, mathematical modeling, forecasting, dynamic series, extrapolation method, econometric model.</p>

Shohsanam Nuritdinovna Niyozova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

MILLIY IQTISODIYOTDA INTERNET XIZMATLARI BOZORINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

<p>Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida internet xizmatlari bozorining hozirgi holati, muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ushbu sohadagi tajribasi o‘rganilgan hamda milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarining rivojlanishini ta‘minlash uchun takliflar ishlab chiqilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: internet xizmatlari bozori, milliy iqtisodiyot, samaradorlik, takomillashtirish, raqamli transformatsiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion rivojlanish.</p>
--

Kirish. XXI asr axborot texnologiyalari asri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda internet inson hayotining barcha jabhalariga jadal kirib bormoqda. Elektron tijorat, masofaviy ta'lim, onlayn xizmatlar va raqamli iqtisodiyotning boshqa ko'plab yo'nalishlari rivojlanmoqda. Xususan, internet xizmatlari bozori jadal sur'atlar bilan o'sib, iqtisodiyotning muhim qismiga aylanib bormoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron hukumatni joriy etish, IT-parklar faoliyatini yo'lga qo'yish borasida qator farmon va qarorlar qabul qilindi [1]. Shu bois, milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.